

GENDER TENGLIGINI TA'MINLASH ORQALI AYOLLAR
TADBIRKORLIGINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH:
O'ZBEKISTON VA ISLANDIYA TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI

Xayirbaeva Balzira Paraxat qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti, «Moliya va moliyaviy texnologiyalar» yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Hozirgi kunda gender tengligi dunyo bo'ylab hamma yo'nalishlarda, ayniqsa iqtisodiyot tarmog'ida eng aktual mavzulardan biriga aylangan. Ushbu tadqiqotda gender tengligini ta'minlashda va iqtisodiy o'sishda ayollar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlarining ahamiyati O'zbekiston va Islandiya misolida qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosati, shu borada qo'llanilayotgan moliyaviy instrumentlar va institutsional mexanizmlar hamda ularning samaradorlik darajasi statistik ma'lumotlar asosida baholangan. Shuningdek, Islandiyaning gender tengligini ta'minlash va ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish borasidagi ilg'or tajribasi tahlil qilinib, uning O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan jihatlari aniqlangan. Tadqiqot natijasida tadbirkorlikda ayollarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda genderga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat samaradorligini yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalar aytilgan.

Kalit so'zlar: ayollar tadbirkorligi, gender tengligi, moliyalashtirish mexanizmlari, moliyaviy inklyuzivlik, davlat siyosati, qiyosiy tahlil, O'zbekiston, Islandiya, barqaror iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Bugungi kunda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalasiga barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va samaradorlikni oshirishda ahamiyatli omil sifatida katta e'tibor qaratilmoqda.

Ayollar tadbirkorligini takomillashtirish nafaqat ularning shaxsiy farovonligini ta'minlabgina qo'ymasdan, balki yangi ish o'rinlarining yaratilishi, oilalar daromadining oshishi, kambag'allikni qisqartirish va shuningdek mamlakatning xalqaro vaziyatda iqtisodiy raqobatbardoshligi bilan ham bog'liqdir.

Shu sababli, so'nggi yillarda dunyoning ko'p mamlakatlarida ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy imkoniyatlardan teng foydalanish imkoniyatini oshirish va qo'shimcha yengilliklar yaratish mamlakat siyosatining ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan.

Shu borada so'nggi vaqtlarda O'zbekistonda ham xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish va ularning shu tarmoqda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan ko'plab islohatlar amalga oshirilmoqda, masalan qo'shimcha tarzda moliyaviy yordam berish va ularning bizneslarini keng hajmda iqtisodiy resurslar bilan ta'minlash kabi ahamiyatli harakatlar amalga oshirilmoqda.

Bunga qo'shimcha ayollar tadbirkorligi uchun imtiyozli kreditlar ajratish, kasb-hunarga o'qitish, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish va bandlikni ta'minlash bo'yicha davlat dasturlarining joriy etilishi gender tengligiga va ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shunga qaramay harakatlarni amalga oshirish uchun moliyaviy harajatlarni to'plash, investitsiyalarni jalb qilish, bozorga chiqish imkoniyatlariga erishish hamda zamonaviy biznes bilimlariga ega bo'lish kabi qator muommolar hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

Mazkur muommolarni yechish maqsadida ayollar tadbirkorligi yuqori darajada rivojlangan va gender tengligini ta'minlashda samarador natijalarga erishgan davlatlar tajribasini tahlil qilish va o'rganish muhim ilmiy va amaliy rol o'ynaydi.

Xususan, Islandiyani gender tengligi bo'yicha ko'plab yillardan buyon katta harakatlar amalga oshirib, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha ulkan natijalarga erishgan davlatlardan biri sifatida tilga olish mumkin.

Mamlakatda ayollarning tadbirkorlik tashabbusini qo'llab-quvvatlash hamda oilaviy va mehnat majburiyatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan kompleks siyosat izchil amalga oshirilmoqda. Natijada bu mamlakatda ayollar nafaqat mehnat bozorida gina emas, balki biznes va innovatsion faoliyatda ham faol ishtirok etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston va Islandiya tajribasini qiyosiy tahlil qilish, mavjud yondashuvlarning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda ilg'or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish ayni vaqtda mamalakatimiz uchun eng kerakli masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi mamlakatimiz va Islandiyada ayollar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

So'nggi yillari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida O'zbekistonda katta o'zgarishlar sezilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining 2025-yilda e'lon qilingan hisobotiga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonda 2,1 million nafar ayol tadbirkor faoliyat yuritgan.


Ushbu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan qariyb yetti baravar ko'paygan bo'lib, mamlakatda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy natijasini ifodalaydi.

Shu bilan birga, hisobotda ayollar tomonidan tashkil etilgan bizneslarning aksariyati mikro va kichik tadbirkorlik subyektlari ekani hamda ularning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari hali ham erkak tadbirkorlarga nisbatan cheklanganligi ta'kidlangan. [1]

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakunida yakka tartibdagi faoliyat yuritayotgan ayol tadbirkorlar soni 121 ming nafardan oshgan.

So'nggi olti yil davomida ushbu ko'rsatkich izchil o'sib borayotgani ayollarning rasmiy tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishi ortayotganini ko'rsatadi.

Ayniqsa, savdo, xizmat ko'rsatish, hunarmandchilik va maishiy xizmatlar ayollar eng faol faoliyat yuritayotgan yo'nalishlar sifatida ajralib turadi. [2]



1-rasm. O'zbekistonda yakka tartibdagi ayol tadbirkorlar sonining o'sish dinamikasi (2018–2024).

Shunga qaramasdan, tadbirkor ayollar sonining ortishi moliyalashtirish bilan bog'liq barcha muammolar bartaraf etilganini anglatmaydi. Aksincha, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, biznesni tashkil etish bosqichida kredit mablag'larini jalb qilish, yetarli garov ta'minotining mavjud emasligi, investitsiya resurslariga chiqish imkoniyatining cheklanganligi hamda zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish bo'yicha bilim va tajribaning yetarli emasligi ayollar duch kelayotgan asosiy muommolar bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari, oilaviy majburiyatlarning yuqoriligi ko'plab ayollarning biznesni kengaytirish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda. Bugungi kunda yuqoridagi muommalarni bartaraf etish maqsatida mamlakatimizda turli mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Imtiyozli kredit dasturlari, subsidiyalar, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturlari, biznes konsalting xizmatlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar ayollarning iqtisodiy faolligini rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, 2025-yilda UNDP va mahalliy hamkorlar tomonidan yo'lga qo'yilgan Women's Entrepreneurship Support Programme ayollarga biznesni rejalashtirish, mentorlik, moliyalashtirish va biznesni kengaytirish bo'yicha kompleks yordam ko'rsatishni nazarda tutadi. [3]

Ammo bu vaziyatda faqat kreditlar hajmini kengaytirish bilan ayollar tadbirkorligini yaxshilash va gender tengligini ta'minlash mumkin emas.

Endilikda teng darajali moliyaviy imkoniyatlarni berish, raqamli moliya vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini o'rganish hamda gender tengligiga sezgir siyosatni takomillashtirish orqali ayollar imkoniyatini oshirish lozim.

Aynan shu borada Islandiya O'zbekiston uchun ilmiy va amaliy tarafdin o'rnak bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda Islandiya nafaqat gender tengligi, balki ayollarni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasida ham dunyoning eng ilg'or davlatlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatning ushbu natijaga erishishi qisqa muddatli islohotlar emas, balki qariyb ellik yil davomida izchil amalga oshirilgan siyosat samarasidir. 1975-yilda Islandiya ayollarining ommaviy "Women's Day Off" harakati jamiyatda gender tengligi masalasiga tub burilish yasadi.

Mazkur voqeadan so'ng davlat tomonidan ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan qonunchilik bosqichma-bosqich takomillashtirildi hamda iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylantirildi.

Hozirda Islandiya ketma-ket o'n besh yildan ortiq vaqt davomida Global Gender Gap Index reytingida birinchi o'rinni egallab kelmoqda. 2025-yil natijalariga ko'ra, mamlakat gender tengsizligining 92,6 %ni bartaraf etishga erishgan, bu esa dunyo bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Ayniqsa, siyosiy vakillik, ta'lim va iqtisodiy imkoniyatlar yo'nalishlarida Islandiyaning natijalari xalqaro miqyosda etalon sifatida e'tirof etiladi. [4]

Islandiyaning ustuvorligi shundaki mamlakat ayollar uchun faqat imtiyozli kreditlarni ajratish bilan gina cheklanib qo'ymasdan, Davlat moliyalashtirish tizimini huquqiy kafolatlar, sifatli ta'lim, mentorlik dasturlari, innovatsion markazlar, biznes inkubatorlari hamda oilaviy siyosat bilan uyg'un holda tashkil etgan.

Natijada turli yo'nalishlarda ayollarning huquq va imkoniyatlari erkaklarniki bilan deyarli teng va ayollar tadbirkorligining samaradorligini oshirishga katta yordam bermoqda.

Mamlakatda mehnat bozorida ayollar faolligi ham yuqori darajada. Statistics Iceland ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda ayollarning iqtisodiy faollik darajasi 78,1 foizni, bandlik darajasi esa 74,8 foizni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar ayollarning iqtisodiy hayotdagi faol ishtiroki uchun yaratilgan institutsional sharoitlarning samaradorligini tasdiqlaydi. [5]

Lekin bu ma'lumotlar Islandiyada gender tengligi to'liq ta'minlangan va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda muommolar yo'q degani emas. Bu mamlakatda ham bu borada o'ziga yarasha to'siqlari bor.

Bu ayollar tadbirkorligini yuksaltirishga doimiy harakat va islohatlar hamda huquqiy tartibga solish va nazorat talab qilinishini bildiradi.

O'zbekiston va Islandiya ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasida umumiy maqsadga ega bo'lsa-da, ushbu maqsadga erishish mexanizmlari va natijalari farqlanadi.

O'zbekistonda asosiy e'tibor imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va davlat dasturlari orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lsa, Islandiyada moliyaviy yordam huquqiy kafolatlar, sifatli ta'lim, mentorlik, biznes inkubatorlari va gender tengligini ta'minlovchi ijtimoiy siyosat bilan uyg'un holda amalga oshiriladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki O'zbekistonda faqat moliyaviy yordam hajmini ko'paytirish emas, balki ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash kompleks tizimini ishlab chiqish kerak.

O'zbekiston va Islandiyada ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash tizimining qiyosiy tavsifi

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Islandiya
Gender tengligi darajas	Rivojlanish bosqichida	Dunyoda 1-o'rin (2025)
Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash	Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, davlat dasturlari	Grantlar, mentorlik, biznes inkubatorlari, innovatsion dasturlari
Moliyalashtirish mexanizmi	Asosan bank kreditlari va davlat dasturlari	Kompleks moliyaviy va institutsional tizim
Ayollarning iqtisodiy faolligi	O'sish tendensiyasida	78,1 %

Asosiy muammo	Garov ta'minoti, moliyaviy savodxonlik, investitsiyaga kirish	Ayrim tarmoqlarda ish haqi tafovuti va rahbarlik lavozimlarida nomutanosiblik
---------------	---	---

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini jadal rivojlantirish uchun faqat moliyaviy yordam tarafdin katta islohatlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari, garov bilan ta'minlash harakatlari, moliyaviy savodxonlik uchun yangi mentorlik kurslar va ko'nikmalar, hammasi uyg'un turda bir tizim sifatida tashkillashtirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. United Nations Development Programme (UNDP). Women's Entrepreneurship in Uzbekistan: Assessment and Recommendations. Tashkent, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Statistika integrallashgan axborot tizimi (SIAT). <https://siat.stat.uz>
3. United Nations Development Programme (UNDP). Women's Entrepreneurship Support Programme. 2025.
4. World Economic Forum. Global Gender Gap Report 2025. Geneva, 2025.
5. Statistics Iceland. Labour Market Statistics 2025. Reykjavik, 2025.